



## ARTISTIC IMAGERY IN ASADULLO HABIB'S STORIES “GULCHEHRA” AND “QORA TULPOR”

**Mohlaroyim Muxamedova**

*4th-year student of the Dari-English group  
Higher School of Iranian and Afghan Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies*

**N. Kabirova**

*PhD  
Associate Professor at the Higher School of Iranian and Afghan Studies  
TSUOS  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Afghan storytelling, Uzbek storytelling, realism, fine arts, symbolism, imagery.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article analyzes the work of the unique and truthful Afghan writer Asadullo Habib, particularly focusing on his stories "Gulchehra" and "Qora Tulpor". Furthermore, the article highlights how these works reflect different stages of Afghan society, particularly war and its impact on humanity. To expand the analysis, a comparative study was conducted with the Uzbek writer Shukur Xolmirzayev's story "Ot egasi" (The Horse Owner).

### ASADULLO HABIBNING “GULCHEHRA” VA “QORA TULPOR” HIKOYALARIDA BADIY TASVIR

**Muxamedova Mohlaroyim**

*4-kurs dariy-ingliz guruhi talabasi  
“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**N. Kabirova**

*PhD  
“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi dotsenti  
TDShU  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Afg‘on hikoyachiligi, o‘zbek hikoyachiligi, realizm, badiiy san’atlar, ramz, tasvir.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada afg‘on hikoyachiligining betakror, haqiqatparvar qalamkash sohibi Asadullo Habib ijodi, xususan uning “Gulchehra”, “Qora tulpor” hikoyalari asosida tahlil qilingan. Bundan tashqari afg‘on jamiyatining turli bosqichlarini, xususan urush va uning insoniyatga ta’sirini ko‘rsatib bera olishini ochib berilgan. Asar tahlilini kengroq tadqiq etish maqsadida o‘zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasi bilan qiyosiy o‘rganildi.

## ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ В РАССКАЗАХ АСАДУЛЛО ХАБИБА “ГУЛЬЧЕХРА” И “ЧЕРНЫЙ КОНЬ”

**Мохларойим Мухамедова**

Студентка 4-го курса группы дари-английского языка

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

**H. Кабирова**

PhD

доцент Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** афганская литература, узбекская литература, реализм, изобразительное искусство, символизм, изображение.

**Аннотация:** В статье анализируется творчество уникального и правдивого афганского писателя Асадуллы Хабиба, особенно его рассказы "Гульчехра" и "Черный конь". Также показано, как данные произведения отражают различные этапы афганского общества, в частности войну и её влияние на человечество. Для более широкого исследования произведения было проведено сравнительное изучение с рассказом узбекского писателя Шукура Холмирзаева "Владелец лошади".

Asalari bilan inson bolasi o‘rtasidagi farq haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Yigirma kunlik asalarini guldan gulga qo‘nib, asal yig‘ayotganini ko‘p ko‘rgandirsiz. Inson farzandi esa faqatgina yoshga to‘lgandan oyoqqa turadi, gapishtini o‘rgana boshlaydi. Sa’diy bilimsizlikni urush dovuliga o‘xshatadi . Ovozi baland ichi esa bo‘sh. Go‘zal tushunchalar, bilim javharlari bilan to‘ldirilmagan zehn sandiq foydasiz va zararli narsalar bilan to‘ladi. Inson tafakkur mahsulining kengayishiga, nutqning ravon va go‘zal bo‘lishiga adabiyotning o‘rni beqiyosdir.

Adabiyot - chinakamiga rang-barang. Uning bag‘rida turli-tuman ijodiy tajribalar kechadi, ijodiy yo‘nalish va oqimlar kesishadi va shu orqali cheksiz olam bag‘rida kechayotgan insonning

murakkab «men»i kashf etiladi. Inson bilimi bilan qadrlanadi. Hazrati Ali ilm xususida: «Ilm pastda turganlarni yuqori darajaga ko‘taradi. Bilimsizlik esa tepada turganlarni pastga tushiradi. Ilm mol-davlatdan ustundir, chunki boylikni sen asraysan. Ilm esa seni asraydi», deganlar. Bugungi kunga kelib biz o‘z xalqiga ma’rifat chirog‘larini ularshgan buyuk afg‘on ma’rifatparvari, serqirra ijodkori, insonparvar, samimiy yozuvchilardan biri bo‘lgan Asadullo Habib haqida so‘z yuritamiz.

Adib 1942-yilda Kobulning “Oshiqonu orifon” ko‘chasida oddiy kambag‘al oilada dunyoga keladi . Adibning otasi turkman zamindorlari avlodi bo‘lib, onasi pashtun qavmidan edi. Asadulloning yoshlik va o‘sirinlik yillari qiyinchilik bilan kechadi. Uning otasi kichik xizmatchi bo‘lib, topgani ro‘zg‘or tebratishga yetib-yetmas, ba’zan Kobul kinoteatrlardan birida bilet sotuvchi bo‘lib ishlaydigan akasi yordamiga ham muhtoj bo‘lib qolar edi. Akasi vafotidan so‘ng u Maymanaga ko‘chib ketadi va o‘sha yerda ishga kiradi. Bu vaqtida Asadullo endigina 7 yoshga kirgan edi. U Maymanadagi Ubayd Juzjoniy mакtabiga kirib o‘qiydi, 9-sinfni tugatgach esa, Kobulga kelib O‘qituvchilar bilim yurti (“Dor ul-muallimin”) ga kirib, o‘qishini davom ettiradi. Badiiy adabiyotga qiziqish Asadullo Habib qalbida bolalik paytlaridayoq uyg‘onadi. U o‘z adabiy tajribalarini she’riyatdan boshlab, hali mакtabda o‘qib yurgan kezlaridayoq she’rlar yoza boshlaydi. Yozuvchining dastlabki to‘plami “Uch batrak” (1966). Ilmiy ishlari mumtoz va hozirgi zamon dariy adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan. Shu bilan birga yozuvchining “Oydin” (1965), “Kishan parchalovchilar” (1975), “Tun va qamchi” (1978), “Oqshom ila-diydor” (1982), “Qizil maktub”(1983), “O‘roqlar va qo‘llar” (1983-84), “Zulmat bilan vidoyashuv” (1985), “So‘nggi orzu” (1986) kabi ko‘plab asarlari mayjud.

Asadulla Habib ko‘chishi uning ijodiga ta’siri haqida Kozimiy shunday dedi: “Umuman olganda, yozuvchilarining uzoq o‘lkalar va G‘arg‘a ko‘chishi ularning adabiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi; Agar Asadulla Habib Kobul universiteti lavozimida bo‘lganida, Bidel kafedrasining saqlanib qolishiga va bediliy fanlar bo‘yicha talabalarning ta’lim olishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi” .

U, ayniqsa, Eronning mashhur yozuvchilaridan Sodiq Hidoyat, Muhammad Ali Jamolzoda, Buzurg Alaviy, Sodiq Cho‘bak prozasi bilan yaqindan qiziqli, ulardan adabiy mahorat sirlarini o‘zlashtirdi. Aspirantura davrida esa, atoqli rus yozuvchilari, xususan, A.P.Chexov, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy, A.M.Gorkiy asarlari bilan, shuningdek, Onore de Balzak, Jek London va boshqa yozuvchilarining rus tiliga tarjima qilingan asarlari bilan tanishib, ulardan mahorat sirlarini o‘rgandi.

### Muhokama va natija

Adabiyot inson ruhiyatining eng nozik qirralarini ochib beruvchi kuchli san’at vositasidir.

O‘zbek yozuvchisi G‘afur G‘ulom ta’kidlaganidek, "Adabiyot qalb oynasidir, unda jamiyatning kechagi, bugungi va ertangi kuni aks etadi."

Badiiy tasvir orqali yozuvchi jamiyatning o'zgarishlarini, inson ruhiyatini, muhitni aks ettiradi. Masalan, roman yoki hikoyalarda voqealar tasviri shu davr jamiyatining hayotiy manzarasini yaratadi.

Afg'on yozuvchisi Asadullo Habibning "Gulchehra" hikoyasida muallif insoniylik, rahm-shafqat,adolat va mehr-oqibat kabi badiiy g'oyalarga asoslangan holda hayotning murakkab haqiqatlarini tasvirlaydi.Ushbu hikoyada badiiy tasvir vositalari orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi munosabatlar va insoniy fazilatlarning qadrsizlanishi yorqin ifoda etilgan .

بعد از ظهر روز شنبه جوانی از قریبہ مریض را سوار بر اسب به شفاخانه آورد و مریض را که چنان ضعیف شده بود که حتا چشمانش را هم باز کرده نمی توانست در سایه دیوار خواباند

"Shanba kuni tushdan so'ng, qishloqlik yigit bemorni toyda shifoxonaga olib keldi va holsizligidan ko'zlarini ham ocholmayotgan bemorni, devor soyasiga yotqizdi."

Hikoyada yigit, shifikor va bosh shifikor o'rtasidagi dialoglar orqali turli ijtimoiy qatlamlarning dunyoqarashi aks ettiriladi.Yigitning qizlarini shifoxonada qoldirishga harakat qilishi uning cheksiz mehribonligini ifodalasa, shifikorning dastlabki sovuqqonligi va keyingi izardorblari insoniy vijdon azobini ohib beradi.

Bemorning qizlari – 3 yoshli Nozi va 5 yoshli Zebo qora tuproqqa belangani, charchoqdan titrayotgani tasvirlanganda muallif tasviriy vositalar orqali ularning og'ir ahvolini kitobxonga ta'sirli yetkazadi:

دختران خم شده بودند، چون مدت طولانی راه رفته بودند، زانوهای شان از درد خم شده بود و پاهای شان میلزید

"Qizchalar egilib turardi. Chunki, uzoq yo'lida oyoqlarini yig'ib olishgandi, tizzalari og'riqdan egilgan va oyoqlari titrardi."

Bunday tasvirlar orqali muallif bolalarning nafaqat jismonan, balki ruhan ham charchaganini, ularning mehr va g'amxo'rlikka muhtojligini ifodalaydi.

Doktirning bemorni tanimaganini aytishi va bemorning unga nafrat bilan qarab, devorga yuz burishi juda kuchli badiiy tasvirdir:

نگاه مریض طوری بود که گویا به او بود، "چطور مرا نمیشناسی؟" "ای انسان ناسپاس، ناسپاس! کارهایی را که من با انسانیت و صمیمیت انجام داده‌ام، اینقدر زود فراموش کرده اید؟

"Bemorning nigohlari go'yo unga qanaqasiga meni tanimaysan? Ey noshukur, nomard! Meni insoniylik va samimiylilik bilan qilgan mehnatlarimni shunchalik tez unutdingmi?"

Bu tasvir insoniy munosabatlar haqida chuqur fikrlashga undaydi. Hikoyada ramzlar mavjud. Toshbaqa – mehr va yo'qotilgan ona ramzi, chang va tuproqqa belangani – og'ir hayot sharoitining ifodasi, shifoxona esa – jamiyatning insoniylik sinovidan o'ta olmagan bo'lagi.

دختر بزرگتر سنگ را در آغوش گرفته بود.

"Katta qiz toshbaqa quchoqlab olgan edi ."

Bu vosita bolalar uchun onalik mehri qanchalik muhimligini anglatadi. Toshbaqa – ularning yo‘qotgan onasining yodi, bolalar uchun mehr-muhabbatning ramzi sifatida kelgan.

Bemorning ismi "Jahongir" bo‘lishi ham ramziy ma’noga ega. Bu ism "jahon egasi" degan ma’noni anglatib, lekin uning so‘nggi ahvoli – o‘z qizlarini yolg‘izlik va qashshoqlikka tashlab ketayotgan bechora otaning hayotiy fojiasini anglatadi.

"Gulchehra" hikoyasi insoniylik va mehr-oqibat yo‘qligi fojalarga sabab bo‘lishini ta’sirli tasvirlaydi. Hikoya davomida jamiyatning befarqligi, shifokorlarning burch va vijdon o‘rtasidagi tortishuvlari va insoniy munosabatlarning qadrsizlanishi ochib beriladi. Doktirning oxirgi pushaymoni – kech bo‘lgan tavbasi, bemorning esa o‘z umrini nafaqat kasallik, balki mehr yetishmovchiligi sabab tugatishi hikoyaning eng ta’sirli yakunlaridan biridir:

او نه از بیماری، بلکه از فقدان انسانیت فوت کرد

"U kasallikdan emas, insoniylik yo‘qligidan o‘ldi ."

Asadullo Habibning "Qora tulpor" hikoyasi ham badiiy tasvir vositalari yordamida chuqur falsafiy va ijtimoiy g‘oyalarni ochib beruvchi asardir. Ushbu hikoyada ramziy obrazlar, qarshilantirish san’atlari orqali zulm va ozodlik, adolat va zo‘ravonlik to‘qnashuvi tasvirlangan.Badiiy asarlarda rang tasviri muhim ahamiyatga ega. “Qora Tulpor” hikoyasida qora va oq ranglar o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosiy g‘oyani ifodalashga xizmat qiladi.

Oq rang – odatda poklik va begunohlik ramzi hisoblanadi, biroq hikoyada bu rang xonning manmanligi va o‘zini oliv tabaqaga mansub deb bilishining belgisi sifatida keladi:

از پشت تپه خانی ظاهر شد که عبای سفید به تن داشت و شاهین سوار بود

“Tepalik ortidan egnida oppoq to‘n, tulporiga mingan xon ko‘rindi .”

Qora rang – kuch, isyon va ozodlik bilan bog‘liq bo‘lib, asarda “qora tulpor” obrazida mujassamlangan. Hikoyada bu timsol bir necha bor takrorlanib, o‘quvchi ongida muhim ramz sifatida qo‘llanilgan:

خان اسپ سیاه خود را در لبه گردنہ توقف داد

“Xon qora tulporini daraning qiya joyida to‘xtatdi.”

Hikoyada qora tulpor – zulm va qudrat ramzi sifatida tasvirlanadi. Hikoyaning oxirgi qismida bolalar ongida hosil bo‘lgan tasavvur ham qora tulporlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular adolat uchun kurash ruhini anglatadi.

کوکان مانند گچشک به همدیگر چسپیده بودند و بدن شان از ترس میلرزید

“Bolalar qo‘rquvdan chumchuq polaponlari kabi bir-birlarining pinjlariga tiqilishar, vujudlari titrardi.”

Bu tasvir xonning zulmkor tabiatini ko‘rsatadi. Uning kelishi bilan bolalar hayajonga tushib, qo‘rquv ichida qotib qoladilar. Chumchuq polaponlariga o‘xshatilgan bolalar esa qishloq aholisi va kelajak avlodining ojizligini, ularning hali kurashish uchun yetarlicha kuchga ega emasligini

anglatadi. Qora tulporlar sonining ko‘payishi haqida to‘xtalsak, unda zulmning davom etishi va ko‘payishi haqidagi falsafiy qarashlar mavjud.

Англоради. Қора тулпорлар сонининг көнъиши, зулмнинг давом этиши ва көнъишини оларни мавжудлаштиришадиги фалсафи яхшилар мавжуд.

- "Agar bitta tulporga yana bitta tulpor qo‘sksak, nechta bo‘ladi?"

До аспб сиаҳ

- "Ikkita qora tulpor."

Hikoyaning badiiy kuchi undagi (qarama-qarshilik) vositasidan foydalanilganida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asarning muhim epizodlaridan biri muallimning bolalar bilan hisob- kitobni o‘rgatishi bilan tegirmonchining shafqatsiz kaltaklanishi orasidagi tafovut mavjud:

"Muallim doskaga yozardi... Tegirmonchining fig‘oni falakka chiqdi ."

Bu ikki hodisaning bir vaqtda sodir bo‘lishi tasvirlangan bo‘lsa-da, ularning mohiyati bir-biriga qarama-qarshi. Muallim bolalarni tafakkurga, bilim va haqiqatni anglashga o‘rgatayotgan bo‘lsa, xon esa o‘z hokimiyatini qamchi bilan mustahkamlashga intilgani yaqol tasvirlangan. Bu tafovut hayotiy haqiqatni ochib beradi: bir tomonda aql va tafakkur, ikkinchi tomonda zo‘ravonlik va shafqatsizlik mavjud.

Hikoyadagi voqealar rivoji tegirmonchining shafqatsiz kaltaklanishidir. Ushbu tasvir orqali muallif inson ruhiyatiga kuchli ta’sir o‘tkazdi:

Асиаб ке бенш др آفتاب قехоه ای شده بود، شروع به دریافت ضربات دردناک از شلاق بر شانه هایش

кред

Асиаб маннд یک درخت محکم محکم ایستاد

"Tanasi quyoshda qorayib jigarrang tusga kirgan tegirmonchining yelkasiga qamchining og‘riqli zarbalari ketma-ket tusha boshladi. Tegirmonchi mustahkam daraxt singari bardavom turardi..."

Bu tasvir shafqatsizlikni aks ettirsa ham, unda inson matonati ham ko‘rinadi. Tegirmonchi o‘z qadr-qimmatini saqlab, haqiqat yo‘lida qattiq tursa ham, zulm va zo‘ravonlik uning badaniga og‘riq keltiradi. Biroq uning ruhiyati bukilmaydi, u mustahkam daraxt singari bardavom turadi.

Shuningdek, ona siymosining tasviri hikoyaga yanada kuchli his- tuyg‘ularni qo‘sghan.

مادر مرحوم با دوین آمد و گفت ای خدا پسرم را می کشد

"Tegirmonchining onasi 'Voy dod! Ey Xudo o‘g‘limni o‘ldirib qo‘yadi!' degancha yugurib keldi ."

Onaning faryodi nafaqat ona mehrining, balki butun qishloq ahlining ojizligining ifodasidir.

Hikoyada tabiat hodisalari ham muhim ramziy ma’noga ega. Masalan, shamol, daraxt, barglar va tosh unsurlari voqealar rivojiga mos tarzda tasvirlanadi. Shamol voqealar keskin tus olganida kuchayadi, uning harakati zulmga qarshi norozilikni ifodalayotganga o‘xshaydi:

باد سرد صدای مادر را دمید، هزاران برگ زرد از درخت پیر گردو را که بالای صخره ها پرواز میکرند فرستاد

"Onaning ovozini sovuq shamol ko'hna yong'oq daraxtining minglab sariq barglarini toshlar uzra uchirdi."

Bu yerda shamol — norozilik va kurashning boshlanishi; sariq barglar — eskirgan va yo'q bo'lishga mahkum bo'lgan hokimiyat timsoli sifatida ishlatilgan.

Shuningdek, tegirmonchining xonga tosh otishi ham bejiz emas. Tosh — kurash va qarshilik ramzi. Bu holat haqiqat va adolatni talab qiluvchi insонning zulmga qarshi turishini ifodalaydi:

سياب با اجتناب از ضربات شلاق، سنگ بزرگی را برداشت و به سوی خان پرتاب کرد

"Tegirmonchi qamchi zarbalaridan qochib, katta toshni qo'liga olib xonga qarab otdi."

Bu yerda tasvir oddiy voqeа bo'lib qolmay, inson erki, g'ururi va zulmga qarshi kurashga chorlov sifatida talqin qilinadi.

Shu o'rinda "Qora tulpor" hikoyasi Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasi bilan tematik mavzu jihatdan o'xhashdir. Har ikkala hikoyalarda Ot asosiy obroz sifatida voqealar yana katta tus olishiga o'z hissasini qo'shgan.

Ikkala hikoya ham inson qadr-qimmati, erkinlik va kurash mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ular o'ziga xos tarzda zulmga qarshi isyonni yoritadi. "Ot egasi" hikoyasida ichki kurash asosiy o'rinda bo'lsa, "Qora tulpor" hikoyasida ochiq kurash tasvirlangan. Lekin har ikkala hikoya ham oxir-oqibat insoniy qadr-qimmatni himoya qilish g'oyasiga asoslangan.

Har ikkala qahramon ham o'z qadr-qimmatini himoya qilish uchun kurashadi. Biri otini berishni istamay, uni o'ldiradi, ikkinchisi esa zo'ravonlikka qarshi chiqib, oxir-oqibat isyon qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Asadullo Habibning "Gulchehra" hamda "Qora tulpor" hikoyalarida badiiy tasviriy vositalardan keng qo'llanilgan. Muallif "Gulchehra" hikoyasi orqali tasviriy vositalar – jonli tasvir, ramziy vositalar va insонning ichki kechinmalar orqali insoniy fojiani kitobxonga yorqin ifodalab beradi. Ushbu hikoya har bir kishini mehr-oqibatning ahamiyati, insoniy qadriyatlar va befarqliq oqibatlari haqida chuqur o'ylashga undaydi.

"Qora tulpor" hikoyasi shuni ko'rsatadiki, zulm va adolatsizlik uzoq davom etmaydi. Qora tulporlar qancha ko'paymasin, haqiqat va ozodlik baribir g'alaba qiladi. Chunki zulm barqaror emas, u qarshilikka duch kelishi muqarrar. Muallif badiiy tasvir vositalari orqali insoniyatni adolat sari intilishga, haqiqat yo'lidan borishga undagan .

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ilm- eng buyuk sharaф" maqoladan 2013-yil. 26- dekabr
2. Асозода Х. Адабиёти садаи XX-и форсии дарии Афғонистон, 138 бет.
3. Umarova Saodat Dariy tili kitobi. Toshkent- 2019 y.
4. Dariy tilidan Xumora Xolmatova tarjimasi. April 13, 2020.
5. Shukur Xolmirzayevning hikoyalar to'plami. Toshkent- 2020.

6. Kabirova N.K. Rahnavard Zaryob hikoyalarining poetikasi. Monografiya. Toshkent- 2021.
7. Inomxojayev R. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti. (XIX asr oxiri – XX asr) Ikkinchchi qismi, –T.: 2018.
8. Герасимова А., Гирс Г. Литература Афганистана. –М.: ИВЛ, 1963.
9. Гирс Г.Ф. Современная художественная проза на пушту в Афганистане. –М.: 1958.
10. ادبیات مقاومت در افغانستان، دانشنامه ادب فارسی، تهران، ۱۳۸۱. ص. ۶۳-۷۰.